

## ALISHER NAVOIY “HAYRAT UL-ABROR” ASARIDA ARABCHA KO‘PLIK SHAKLLARINING QO‘LLANISHI

*Qo‘qon universiteti Andijon filiali  
Filologiya tillarni o‘qitish o‘zbek  
tili yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

*Najmiddinova Munisa Shohruzbekovna*

*Ilmiy rahbar: Umarov Adhamjon Abdusalomovich*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Xamsa” turkumiga kiruvchi birinchi dostoni — “Hayrat ul-abror” asarida uchraydigan arab tilidan o‘zlashgan leksik birliklarning ko‘plik shakllari tahlil qilinadi. Mazkur o‘zlashma so‘zlarning grammatik xususiyatlari, xususan, asar matnida qanday qo‘llanilgani, ularning semantik jihatlari yoritildi.

**Kalit so‘zlar:** leksik, mavjudot, grammatik, vazn, avliyo, o‘zbek, kitob, Arab, ko‘plik.

Buyuk o‘zbek shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi Alisher Navoiyning boy adabiy merosi nafaqat yuksak badiiy mahorat namunasi, balki mislsiz ma’naviy va lisoniy boylik manbai sifatida ham alohida ilmiy ahamiyatga ega. Uning asarlari turkiy tilning imkoniyatlarini to‘la namoyon etgan holda, o‘sha davr jamiyatining ma’naviy dunyosi, ijtimoiy hayoti va madaniy muhitini keng qamrovda aks ettiradi. Navoiy ijodida so‘z san’ati bilan bir qatorda tilning leksik, semantik va uslubiy qatlamlari yuksak darajada boyitilgan. Alisher Navoiyning “Xamsa” turkumiga kiruvchi birinchi dostoni — “Hayrat ul-abror” asarida uchraydigan arab tilidan o‘zlashgan leksik birliklarning ko‘plik shakllari qo‘llanilgan.

Ma’lumki, o‘zbek tilida otlarning birlik va ko‘plik sonlari mavjud. O‘zbek tilida otlarning ko‘plik soni –lar qo‘shimchasi bilan yasaladi. Shuningdek, ko‘plik –lar qo‘shimchasi hurmat-ehtiroمنى ifoda etish uchun ham qo‘llaniladi. Arab tilida esa so‘zlarning ko‘pligini hosil qilish ancha murakkabdir. Arab tili grammatikasi dunyoning eng murakkab va boy grammatik tizimlaridan biri hisoblanadi. Bu tizimda son kategoriyasi o‘ziga xos o‘rin tutadi. U ikki usulda yasaladi: 1. To‘g‘ri ko‘plik yasash usuli; 2. Siniq ko‘plik yasash usuli;

1. To‘g‘ri ko‘plik so‘zning oxiriga ma’lum qo‘shimchalar qo‘shish bilan hosil qilinadi. Kasb-hunar, mansabni ifodalovchi muzakkar jinsidagi so‘zning tanvini tushurilib, “u:na” qo‘shimchasi qo‘shiladi.

Muannas jinsdagi soʻzning koʻpligi uning oxiriga "a:t" qoʻshimchasini qoʻshib hosil qilinadi, Bu yerda “t” (ta-marbuta) “t” (ta-mamduda) harfiga aylanadi.<sup>1</sup>

Odamni bildirmaydigan (gʻayri oqil) muzakkar va muannas jinsdagi aksariyat soʻzlarning koʻpligi ham muannas jinsdagi toʻgʻri koʻplik shaklida hosil qilinadi.

Bunga misol tariqasida asardagi *maxluqot, munojot, mavjudot, xarobot, mubohot, holot, kamolot, mahallot, maqolot, kalimot, libosot, xayolot, sakanot, harakot, zarrot* kabi soʻzlarini keltirishimiz mumkin:

*Ham harakotidin ionat yetib, Yetgali maqsudqa tahrik etib.*

*Ham sakanoti qilib ifsho sukun, Anda tavaqqufqa boʻlub rahnamun.*<sup>2</sup>

2. Siniq koʻplik. Soʻzining ozagini tashkil etuvchi undoshlar orasidagi unilarning oʻzgarishi, nooʻzak undoshlarning kirishi, umuman soz ichki tarkibining oʻzgarishi, boshqacha aytganda soʻz vaznining oʻzgarishi natijasida xosil boʻluvchi koʻplik siniq koʻplik deyiladi. Masalan: *kitab(un) – kutub(un), Kitob—kitoblar.*

Siniq koʻplik har bir soʻzdan oʻziga xos vaznda xosil boʻladi. Bu vaznlar anchagina boʻlib, ularni maʼlum qoida asosida tartibga solib boʻlmaydi. Birlik sonda bir xil vaznda boʻlgan soʻzning koʻpligi har xil vaznda boʻlishi yoki birlikda har xil vaznda boʻlgan soʻzlarning koʻpligi bir xil vaznda boʻlishi mumkin. Soʻzlarning siniq koʻpligini xosil qilishning aniq bir qoidasi yoʻq. Lekin eng koʻp uchraydigan vaznlari mavjud.

Asarda koʻplab arabcha siniq koʻplik shakllarini uchratishimiz mumkin. Quyidagi misolning oʻzida toʻrtta siniq koʻplik shakllari mavjud.

*Ahli-yu avlodi-yu atboyigʻa, Oliy ahfodiyu ashʻyoyigʻa*

**Ahbob** - bu soʻz arab tilida “habib”soʻzining koʻpligidir. Oʻzbek tiliga aynan shu maʼnoda koʻchgan.

**Axloq** - “xulq”soʻzining koʻpligidir. Oʻzbek tiliga ham aynan shu maʼnoda koʻchgan.

**Avlod** - bu soʻz arab tilida “valad” (bola) soʻzining koʻpligidir. Ushbu soʻz arab tilida “farzandlar, oʻgʻillar “maʼnosini, oʻzbek tilida “bir otadan tarqagan nasl-zurriyot, qarindosh-urugʻ” maʼnosini anglatadi, koʻplik shakli “-lar”qoʻshimchasi orqali yasaladi.

**Asbob** - arab tilida “sabab”soʻzining koʻpligidir. Ammo bizga oʻz maʼnosida emas, balki “qurol-yarogʻ, uy-roʻzgʻor buyumlari” maʼnosida koʻchgan.

**Ashob** - arab tilida “sohib”soʻzining koʻpligidir. Oʻzbek tiliga ham aynan shu maʼnoda koʻchgan. Ammo bu soʻz oʻzbek tilida birlikni anglatadi, koʻplik shakli “-lar”qoʻshimchasi orqali yasaladi.

**Ahvol** - Bu soʻz arab tilida “hal”soʻzining koʻpligidir. Oʻzbek tiliga ham aynan shu maʼnoda koʻchgan. Bu soʻz oʻzbek tilida birlikni anglatadi, koʻplik shakli “-lar”qoʻshimchasi orqali yasaladi.

Arab tilida koʻplik hosil qilishning asosiy usullaridan biri siniq koʻplik boʻlib, bunda soʻzning ichki tovush tarkibi oʻzgaradi. Masalan, *shayʼun* (“narsa”) soʻzining siniq koʻplik shakli *ashyāʼ* (“narsalar”) hisoblanadi. Oʻzbek tiliga aynan shu koʻplik shakli *ashyo* koʻrinishida oʻzlashgan.

Oʻzbek tilida esa *ashyo* soʻzi grammatik jihatdan birlik shaklidagi ot sifatida qoʻllanadi va oʻzbek tilining umumiy qoidalariga muvofiq holda **-lar** koʻplik qoʻshimchasini qabul qilishi mumkin: *ashyo* → *ashyolar*. *Sinfdagi ashyo qulay joylashtirilgan. Portfeldagi ashylar bebaho hisoblanadi.*

Tilshunoslikda bunday hodisani ikkilamchi koʻplik deb yuritiladi, yaʼni lugʻaviy jihatdan koʻplik maʼnosiga ega boʻlgan birlikka yana grammatik koʻplik qoʻshimchasining qoʻshilishi kuzatiladi.

Bu misollarda *ashyo* soʻzi grammatik jihatdan birlik, *ashyolar* esa grammatik koʻplik shaklida qoʻllanmoqda.

Shu kabi hodisa *anbiyo* soʻzida ham kuzatiladi. Arab tilida *nabiy* (“paygʻambar”) soʻzining siniq koʻplik shakli *anbiyāʼ* (“paygʻambarlar”) boʻlsa, oʻzbek tilida *anbiyo* soʻzi birlik shaklida qabul qilinadi va *anbiyolar* shaklida koʻplik hosil qilishi mumkin.

Xuddi shuningdek, *avliyo* soʻzi arab tilida koʻplik shaklida boʻlsa-da, oʻzbek tilida birlik maʼnosida qoʻllanadi. Bu holat oʻzlashma soʻzlarning oʻzbek tilining grammatik tizimiga moslashganini koʻrsatadi.

Tahlil natijalari shuni koʻrsatadiki, arab tilidagi siniq koʻplik shakllari oʻzbek tiliga oʻzlashar ekan, ular grammatik jihatdan birlik sifatida qabul qilinadi, lugʻaviy jihatdan esa koʻplik semantikasini saqlab qoladi. Bu esa grammatik koʻplik bilan lugʻaviy koʻplik oʻrtasidagi farqni yuzaga chiqaradi.

Alisher Navoiy ning Hayrat ul-abror asarida arab tilidan oʻzlashgan koʻplab leksik birliklar, jumladan koʻplik shaklidagi soʻzlar keng qoʻllangan. Bu birliklar asarning til boyligini oshirgan hamda badiiy ifoda imkoniyatlarini kengaytirgan.

Arab tiliga xos boʻlgan siniq koʻplik shakllari oʻzbek tiliga oʻzlashar ekan, ular koʻpincha grammatik birlik sifatida qabul qilingan. Keyinchalik esa oʻzbek tiliga xos -lar qoʻshimchasini qabul qilish orqali yana koʻplik shaklini hosil qilgan.

Mazkur jarayon oʻzlashma soʻzlarning milliy til tizimiga moslashuvi hamda til taraqqiyotining tabiiy jarayoni ekanini koʻrsatadi. Shu jihatdan Navoiy asarlarini tilshunoslik nuqtai nazaridan oʻrganish oʻzbek tilining tarixiy rivojlanishi, leksik boyishi va grammatik tizimining shakllanishini tadqiq etishda muhim ilmiy manba boʻlib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мирқобил Ҳасанов. Араб тили. – Тошкент, Global books, 2019, –Б-55; Иброҳимов Н., Юсупов М. Араб тили грамматикаси. – Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1997, Б-39.
2. Alisher Navoiy. Nayrat ul-abror. – Toshkent, G‘afur G‘ulom, 2018, В-10-11.
3. Иброҳимов Н., Юсупов М. Араб тили грамматикаси. – Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1997, Б-39.

